



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNING KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Ubaydullayev Normuhammad Xasanovich

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi

Toshtemirova Marjona Maruf qizi

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning hayotida mashg'ulotlarning ahamiyati va tarbiyalanuvchilarda o'yin kompetensiyasini rivojlantirishning amaliy metodlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, pedagog tarbiyachilarning bolalarda o'yin kompetensiyalarini rivojlantirish uchun turli zamonaviy metod va usullar ishlab chiqib, uni amaliyotda qo'llashi tadqiq qilingan. O'yin kompetensiyalarini rivojlantirish uchun taklif va tavsiyalar berilgan. Rivojlantiruvchi 5 ta markazlarda o'yin orqali bolalarga ta'lim va tarbiya berish haqida bir qancha taklif va fikrlar keltirib o'tilgan. Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari bayon qilingan. Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarining metodologik asoslari ko'rsatib berilgan. Jumladan, maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarga alohida to'xtalib o'tilgan. Hamda bola tarbiyasiga va uning kelajagiga doir hikmatli so'zlar tahliliy o'rganilgan. Hamda bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish masalasi dolzarbligi borasidagi fikrlar keltirilgan

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim tashkilotlari, kompetensiya, pedagogik mahorat, oila, mashg'ulotlar, o'yin, rivojlantiruvchi markazlar, pedagog, ota-ona, yangi O'zbekiston, renesans.



АННОТАЦИЯ: В статье рассматривается значение занятий в жизни дошкольника, практические методы развития, игровые компетенции воспитанников. А также педагог должен разрабатывать различные современные методы и игровые компетенции и должен применять на практике. Для развития игровых компетенции даны предложения и рекомендации. В 5 развивающих центрах даны предложения и идей о том как обучать детей через игры. Сформулированы компетенции области развития ребёнка. Показаны методологические основы компетенции по направлениям развития ребёнка. В том числе выделены нормативные правовые акты, относящиеся к сфере дошкольного образования и воспитание детей. И мудрые слова о воспитании ребёнка и их будущем. Представлена вопросы формирование актуальности компетенции в сфере развития ребёнка.

Ключевые слова: Организация дошкольного образования, компетенция, педагогическая мастерство, семья, занятия, игра, воспитатель дошкольной образовательной организации, педагог, родитель, новый Узбекистан, Ренессанс.

Abstract: In the article, the importance of training in the life of preschoolers And practical methods of development of game competences of students were considered. In addition, various modern methods and methods have been developed for the development of children's game competencies of pedagogues. Suggestions and recommendations are given for the development of game competencies. A number of suggestions and ideas about education and upbringing of children through games are presented in 5 developmental centers. Competencies in children's development areas are described. Methodological bases of competences in areas of child development are shown. In particular, regulatory legal documents related to the field of preschool education and upbringing were specifically addressed. Wise words about child education and his future have been studied analytically. Opinions on the relevance of the formation of competences in the areas of child development are presented.



Key words: Organization of preschool education, competence, pedagogical skill, family, training, game, developmental centers, pedagog, parents, new Uzbekistan, renaissance.

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorgarlik darajasida shakllantirish maqsadida tashkil etiladi. Ushbu ta'lim bolaning olti-yetti yoshga to'lguniga qadar oilada maktabgacha ta'lim muassasalari (yasllilar uch yoshgacha bo'lgan bolalar uchun, bolalar bog'chalari 3 yoshdan 6-7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun) va mulk shaklidan qat'i nazar, ta'lim tashkilotlarida olib boriladi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, barcha sohalar qatori ta'lim-tarbiya sohasida ham tub ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. 2011-yil Respublikamizda maktabgacha ta'lim rivojining asosiy yo'nalishlari, maqsad va vazifalari, tamoyillarini o'z ichiga olgan "Maktabgacha Ta'lim Konsepsiyasi" ishlab chiqildi. Mazkur konsepsiya ko'plab me'yoriy hujjatlar asosida ishlab chiqilgan bo'lib, unda Respublikamizda maktabgacha ta'limni rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari o'z aksini topgan. Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllanishida amalga oshiriladigan vazifalarning huquqiy asosi sifatida "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonuni xizmat qiladi. Bunda bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllanishiga xizmat qiladigan maktabgacha ta'lim va tarbiya tashkilotlari hamda tarbiyachi pedagoglar, ota-onalarning huquq va majburiyatlari mustahkamlangan. Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida esa bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirishning mavjud shart-sharoitlari va imkoniyatlari, kamchiliklari o'rganilgan hamda 2030-yilgacha bu jarayonda amalga oshiriladigan vazifalar belgilab berilgan. Shuningdek birinchi Prezidentimiz Islom Karimov hamda amaldagi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning asarlari va ma'ruzalari ham bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini o'rganishda



metodologik asos sifatida xizmat qiladi. Bu borada mamlakatimiz mustaqilligining me'mori Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida shunday yozadi: "Odamzot uchun bir umr zarur bo'ladigan tabiiy ko'nikma va xususiyatlar, masalan, har qaysi bolaning o'ziga xos va o'ziga mos qobiliyati, atrofidagi odamlar bilan muomalasi, tengdoshlari orasida o'zini qanday his qilishi, yetakchilik xislatlariga ega bo'lishi yoki ega bo'lmasligi, kerak bo'lsa, dunyoqarashi – bularning barchasi avvalo uning tug'ma tabiati, shu bilan birga, oilada oladigan tarbiyasiga uzviy bog'liq ekanini hayot tajribasi ko'p misollarda tasdiqlab beradi. Aynan mana shu davrda bola hamma yaxshi-yomon narsani tushunib, anglay boshlaydi, uning beg'ubor ongi bamisoli bosma qog'oz singari oiladagi, yon-atrofdagi barcha voqea-hodisalarni, ularning zamiridagi taassurotlarni o'ziga shimib-singdirib oladi. Uning ota-onasiga, bobo va momolariga mehri va hurmati, o'zini o'rab turgan muhitga nisbatan munosabati kundan kunga takomillashib boradi".

Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim kompetensiyalari quyidagilar: Kommunikativ kompetensiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi. O'yin kompetensiyasi – bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi. O'quv-tarbiyaviy jarayon uchun asos hisoblanadi. Ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tuta olish mahorati. Bilish kompetensiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish. Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari Bolaning kompetensiyalari bola rivojining quyidagi sohalarida belgilanadi:

- jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;



- bilish jarayonining rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish.

O'yin - buyumli, predmentli va ijtimoiy voqelikda harakat qilish va uni anglashga yo'naltirilgan jarayondir. O'yin orqali bolalarga nafaqat xursandchilik balki tarbiya va ta'lim ham berish mumkin. Har bir tarbiyachi o'z mahoratidan kelib chiqqan holda bolalarga turli mashg'ulotlar orqali ta'lim beradi. O'yin faoliyatining turlari juda ko'p. Ular ichida ta'limiy o'yin sifatida bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladigan o'yinlar sirasiga kiruvchi o'yin bu- didaktik o'yin hisoblanadi. Didaktik o'yinlarning muhim belgilaridan biri undagi qoidalarining mavjudligidir. O'yinda o'yin niyati, o'yin qoidalari, o'yin harakatlari o'rtasida uzviy aloqa mavjud. Didaktik o'yinlar orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. Bu o'yinlarda bolaning har tomonlama rivojlanishi, bilim jarayoni, sensor madaniyati, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatlari takomillashadi. O'yin qoidasiga rioya qilish, unga amal qilish o'yin mazmunini boyitadi. O'qituvchi - pedagog didaktik o'yinli mashg'ulotlarni o'tkazishda qizg'in tayyorgarlik ko'rishi va uni o'tkazishda quyidagi didaktik talablarga rioya qilishi talab etiladi:

- ✓ Didaktik o'yinli mashg'ulotlar dasturida qayd etilgan mavzularning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsad hamda vazifalarni hal qilishga qaratilgan bo'lishi;
- ✓ Jamiyatdagi va kundalik hayotdagi muhim muammolarga bag'ishlanib, ular o'yin davomida hal qilishi;
- ✓ Barkamol shaxsni musiqiy tarbiyalash tamoyillariga va sharqona odob-ahloq normalariga mos kelishi;
- ✓ O'yin tuzilishi jihatidan mantiqiy ketma-ketlikda bo'lishi; Mashg'ulotlar davomida musiqiy didaktik prinsiplarga amal qilinishi va eng kam vaqt sarflanishiga erishishi kerak. Qoidali-harakatli o'yinlar asosini bolaning jismoniy rivojlanishiga qaratilgan harakatlar



tizimi egallaydi. Bunda asosan yurish, yugurish, sakrash, chirmashib chiqish, uloqtirish, emaklash kabi harakatlar o‘yin mazmunini belgilaydi. Qoidali-harakatli o‘yinlar kelib chiqishiga ko‘ra:

- a) Xalq milliy o‘yinlari
- b) Mualliflik o‘yin turlariga bo‘linadi.

Har ikki o‘yin turida ham asosiy mezon-o‘yin qoidasi bo‘lib hisoblanadi. Harakatli o‘yinlar harakatlarning aniqligi, ifodaliligi, bolalarda tezkorlik, epchillik, qo‘rqmaslik, mardlik kabi oliyjanob fazilatlarni tarbiyalab boradi. Kichik yoshdagi bolalar uchun o‘yin sujeti ochiq xarakterga ega bo‘ladi.

Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish masalasi hech qachon o‘zining dolzarbligini yo‘qotmaydi. Chunki, birinchidan, har qaysi davlat va millat yoki xalq o‘zining avlodini barkamol bo‘lishini eng oliy maqsadlar qatoriga qo‘yadi. Ikkinchidan, aholining o‘shish darajasini 1991-yilga nisbatan 2020-yilni oladigan bo‘lsak, mamlakatimiz aholisi 7,4 foizga o‘shgan, rivojlangan Yaponiya davlatida bu ko‘rsatkich 3,5 foizga, Amerika Qo‘shma Shtatlarida 1,8 foizga, rivojlanayotgan qo‘shni Qozog‘iston Respublikasida bu ko‘rsatkich 2,5 foizni, Tojikistonda esa 4,3 foizni tashkil etmoqda. Bu tahlillar mamlakatimizda aholining o‘shish darajasi rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan ham yuqori ekanligini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga O‘zbekistonda bugungi kunda Markaziy Osiyo davlatlari bilan solishtirganda ham tug‘ilish darajasi yuqori ekanligiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Demak, maktabgacha ta‘lim tashkilotlariga keladigan bolalarning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirishga doir dasturlarni, o‘quv-uslubiy adabiyotlarni yanada takomillashtirish talab etiladi. Chunki kechagi va bugungi hamda ertangi bolalarning aqliy rivojlanishida juda katta farqlarni sezayapmiz. Uchinchidan, yangi O‘zbekiston bugungi kunda o‘z oldiga ezgu maqsad-uchinchi Renesansni barpo etishga tayyorgarlik ko‘rmoqda. Mana shu maqsadga erishishda bugungi



avlodning kuchli, bilimli va dono bo'lishi talab etiladi. Ana shu maqsadlarni amalga oshirish uchun uzluksiz ta'lim tizimi isloh qilinmoqda. Jumladan, maktabgacha ta'lim tizimi tubdan isloh qilindi. Bu tizimni yanada riojlantirish uchun huquqiy asoslar qabul qilindi va takomillashtirildi.

Xullasa qilib aytganda, bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini ilmiy nuqtai-nazardan o'rganish, uning ilmiy-uslubiy jihatlarini tahlil qilish va bu borada yangiliklarni joriy etish davr talabi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kilichova M., Hamrayeva E. (2021) Issues of formation of ecological knowledge and culture in preschool educational institutions. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR).Impact factor SJIF-7.696/ April, 4, P.668
2. Fazilova D.X (2021) Xorijiy tajribalardan foydalanish va innovatsion texnologiyalar modulidan o.,quv–uslubiy majmua. Jizzax, 2021, 61-bet.
3. Qilichova M. X. (2021) Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish usullari.//XXI asr ta'lim tizimida innovatsion va integratsion yondoshuvlar mavzusidagi Xalqaro ilmiy–amaliy onlayn konferensiyasi materiallari Jizzax 633-bet
4. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga qo'ramiz. - Toshkent:O'zbekiston, 2017.-488 bet.2.
5. Z. T. Nishonova . M. Xolnazarova “ Rivojlanish psixologiyasi”. Toshkent. 2019.
6. N. M. Egamberdiyeva “Maktabgacha ta'lim pedagogikasi”, “Ilm ziyo” nashriyot uyi. 2006-yil 27-28-bet 4 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.
7. Plexanov G. V “Adressiz xatlar” 346-bet 6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 30- sentabrdagi PF5198 sonli “Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-3362886>